



**Mualliflar:**

**Murodova Guli Bo'ronovna** - BuxDU Axborot texnologiyalari kafedrasida katta o'qituvchisi

**Atayeva Gulsina Isroilovna** - BuxDU Axborot texnologiyalari kafedrasida katta o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

**Jumaev Jura** – Buxoro davlat universiteti Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasida dotsenti

**Murodova F.R.** – Buxoro muhandislik – texnologiya instituti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

“Axborot texnologiyalari” kafedrasining 2022 yil 15 yanvardagi 20 - sonli majlisida muhokama qilingan va tavsiya etilgan.

Buxoro Davlat Universiteti Axborot texnologiyalari fakulteti 2022 yil 25 fevraldagi o'quv kengashi tomonidan tavsiya etilgan.

Buxoro davlat universiteti  
o'quv-metodik kengash 8-sonli  
yig'ilishining bayonnomasidan

**K O' CHIRMA**

30.03.2022

Buxoro shahri

**KUN TARTIBI:**

**1. Turli masalalar.**

Axborot texnologiyalari kafedrasida katta o'qituvchilari G.B. Murodova va G.I. Atayevalarning 5230100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishlari uchun “Elektron tijorat” deb nomlangan uslubiy qo'llanmani tavsiya etish.

**ESHITILDI:**

**M.Y. Farmanova (kengash kotibasi)** - Axborot texnologiyalari kafedrasida katta o'qituvchilari G.B. Murodova va G.I. Atayevalarning 5230100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishlari uchun “Elektron tijorat” deb nomlangan uslubiy qo'llanmani nashrga tavsiya etishni ma'lum qildi. Ushbu uslubiy qo'llanmaga: BuxMTI, Axborot kommunikatsiya texnologiyalari kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) F.R. Murodova va Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasida dotsenti J. Jumayevlar tomonidan ijobiy taqriz berilgani ta'kidlandi. Uslubiy qo'llanma muhokamasi haqidagi Axborot texnologiyalari fakulteti (2022-yil 25-fevral) va Axborot texnologiyalari kafedrasida (2022-yil 15-yanvar) yig'ilish qarori bilan tanishtirdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib o'quv-metodik kengash

**QAROR QILADI:**

1. Axborot texnologiyalari kafedrasida katta o'qituvchilari G.B. Murodova va G.I. Atayevalarning 5230100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishlari uchun “Elektron tijorat” deb nomlangan uslubiy qo'llanma nashrga tavsiya etilsin.

O'quv-metodik kengash raisi

O'quv-metodik kengash kotibasi

R.G'. Jumayev

M.Y. Farmanova



## MUNDARIJA

<b>Mavzu 1. O'zbekiston Respublikasidagi elektron tijorat texnologiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning normative – huquqiy masalalari.....</b>	<b>5</b>
<b>Mavzu 2. Elektron biznes va elektron tijorat: asosiy tushunchalar .....</b>	<b>11</b>
Elektron biznes.....	11
Elektron tijorat.....	13
Elektron tijoratning paydo bo'lishi uchun zarur shartlar.....	14
Elektron tijoratning afzalliklari.....	15
<b>Mavzu 3. Internet -to'lov tizimlari .....</b>	<b>16</b>
To'lov tizimlarining asosiy tushunchalari va tasnifi.....	16
To'lov tizimlariga misollar.....	23
WebMoney o'tkazmasi.....	23
Yandex.Money / PayCash.....	26
CyberPlat.....	27
CyberPOS.....	29
Elektron pulning afzalliklari va kamchiliklari: .....	30
<b>Mavzu 4. Internet -marketing va web-analitika .....</b>	<b>32</b>
Internet -marketing tushunchasi .....	32
Marketing turlari .....	32
Internet -marketing vositalari .....	32
Internet -do'konning ishlash ko'rsatkichlari .....	34
<b>Mavzu 5. Elektron tijorat sohasidagi axborot xavfsizligi .....</b>	<b>37</b>
Elektron tijorat uchun axborot xavfsizligi tizimini yaratish tamoyillari.....	37
ISO 27001 xalqaro standarti .....	38
Elektron tijorat xavfsizlik tizimining samaradorligini baholash usullari.....	41
Elektron tijoratda xavfsizlik muammolari va talablari.....	42
Elektron tijoratda firibgarlik turlarining tasnifi .....	44
Elektron tijoratda xavfsizlik muammosini hal qilish usullari .....	46
Ma'lumotlarning xavfsiz uzatilishini tashkil qilish .....	48
<b>Foydalanilgan manbalar ro'yxati .....</b>	<b>50</b>

## MAVZU 1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI ELEKTRON TIJORAT TEXNOLOGIYALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING NORMATIV – HUQUQIY MASALALARI

Elektron tijoratning to'g'ri ishlashining asosiy sharti - bu ixtisoslashtirilgan normativ-huquqiy bazaning mavjudligi. Demak, asosiy qonunda barcha yuridik va jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari asosida ish yuritishi belgilab qo'yilgan.

Xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida elektron tijoratga qo'yiladigan muayyan talablar berilgan. Ushbu Kodeksning 776-moddasida bank hisobva raqamining egasi o'z hisob varag'ini elektron shaklda boshqarish huquqiga ega ekanligi qayd etilgan.

Biroq fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni to'liq qamrab olib, tartibga sola olmaydi. Shu bois O'zbekistonda elektron tijorat sohasida qonunchilik bazasini yaratish uchun bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Elektron tijorat faoliyati qoidalarini belgilovchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrda 154-I-sonli Qonunidir. «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida», O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 apreldagi 216-I-sonli Qonuni. «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining 16.12.2005 yildagi O'RQ-13-son Qonuni. «Elektron to'lovlar to'g'risida», O'zbekiston Respublikasining 11.12.2003 yil 562-II-son Qonuni. «Elektron raqamli imzo to'g'risida», O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 29 apreldagi 613-II-son Qonuni. «Elektron tijorat to'g'risida», 2016-2018-yillarda O'zbekiston Respublikasida elektron tijoratni rivojlantirish konsepsiyasi (Vazirlar Mahkamasining 04.12.2015 yildagi 353-son qaroriga 1-ilova), Qarori. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.12.2007 yildagi 120-son qarori. «Elektron tijoratni amalga oshirishda to'lovlarni amalga oshirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 30.01.21-son qarori. «Elektron tijoratni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», «Elektron tijoratda qo'llaniladigan shartnomalarni elektron shaklda va boshqa namunaviy hujjatlar shakllarini tayyorlash tartibi to'g'risida»gi nizom (2007.10.05 MVESIT-son EG-01 / 10-5248-son qarori bilan tasdiqlangan), Davlat bojxona qo'mitasi 01-02 /6-28-son va GNK № 2007-55, Adliya vazirligi tomonidan 2007-yil 21-noyabrda 1740-son bilan ro'yxatga olingan), Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalari (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2 iyundagi 185-son qarori) va Axborot vositachilari – tashkilotchilarning elektron yarmarka, auksion va tanlovlar faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.02.2016 yildagi №249 qarori).

O'zbekiston Respublikasining «Elektron tijorat to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasiga muvofiq, elektron tijorat axborot tizimlaridan foydalangan holda tuzilgan